



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 30-iyul

VI-103-95-7-96-K/24

Kattaqo‘rg‘on tumani

Kattaqo‘rg‘ontuman Tibbiyot birlashmasi tasarrufidagi oilaviy shifokorlik punktlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida

Kattaqo‘rg‘on tuman Tibbiyot birlashmasining 2024-yil 9-iyulda 165-sodagi xatidagi talabni qanoatlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuning 6-moddasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-215-sodagi Qaroridagi asoslar mavjudligini inobatga olib hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuning 6- va 25-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kenagshining VI chaqiriq 103-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Kattaqo‘rg‘on tuman Tibbiyot birlashmasining 2024-yil 9-iyulda 165-sodagi xati o‘rganib chiqilgan deb hisoblansin va undagi talablar qanoatlantirilsin.
2. Kattaqo‘rg‘on tumandagi “Yonboshsoy”, “Omonkalxat”, “Omonboy”, “Qorako‘lcha”, “Qo‘shtepa”, “Mo‘minxo‘ja”, “Ulug‘bek”, “Chig‘atoy”, “Burjan” oilaviy shifokorlik punkti faoliyati yo‘lga qo‘yilsin.

3. Kattaqo‘rg‘on tumani hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (O.Shirinov), tuman Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi (M.Obbozov), tuman Tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov) ga:

-oilaviy shifokorlik punktlari xarajatlari smetasi va shtat jadvallarini belgilangan tartibda tasdiqlanishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’milasini hamda faoliyatini amalga oshirish xarajatlari uchun tuman budgetidan zarur mablag‘lar ajratsin. Oilaviy shifokorlik punktlari tashkil etilishi munosabati bilan qattiq va yumshoq inventarlar bilan ta’milash;

-oilaviy shifokorlik punktlari xarajatlari smetasi va shtat jadvallarini belgilangan tartibda tasdiqlanishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’milasini hamda faoliyatini amalga oshirish xarajatlari uchun tuman budgetidan zarur mablag‘lar ajratish vazifalari yuklansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova), tuman hokimining o‘rinbosari O.Shirinov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



TESHAYEV MUXIDDIN
XOLIKULOVICH